

Akmal S. Yakubov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

doktoranti

akmalyakubov1981@gmail.com

akmal.yakubov.81@mail.ru

**1917-YIL TURKISTONDA MILLIY KUCHLARNING HOKIMIYAT UCHUN
KURASHIDA QURULTOYLARNING O'RNI
(Turkiston musulmonlarining I qurultoyi misolida)**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada 1917 yil fevral inqilobidan keyin Turkistonda yuzaga kelgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyat, ayniqsa, siyosiy vaziyatning noaniqli gi sharoitida milliy kuchlarning tashkilotlashuvi va yuksalishi, o'lkadagi siyosiy bo'shliqni to'ldirishga bo'lgan say'-haraka tlari hamda bu jarayonda milliy kuchlar tomonidan chaqirilgan qurultoylarning ahamiyati xususida so'z boradi. Shu bilan birga mazkur tadqiqotda 1917 yil da Turkistondagi milliy kuchlar tomonidan chaqirilgan qurultoylarning o'lka musulmon aholisini g'oyaviy-siyosiy, milliy va diniy maqsadlar ustida amalga oshirgan tortishuvlari, qabul qilgan qarorlari tarixiylik nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** Turkiston o'lkasi, Fevral inqilobi, Sho'royi Islomiya, Butunturkiston musulmonlari, Milliy Markaz, Toshkent Soveti, Muxtoriyatchilik, Turkiston Federatsiyasi.*

**РОЛЬ КУРУЛТАЕВ В БОРЬБЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ СИЛ ЗА ВЛАСТЬ В
ТУРКЕСТАНЕ В 1917 ГОДУ (на примере I Туркестанского мусульманского
курултая)**

***Аннотация.** В этой статье рассматривается социальная, экономическая и политическая ситуация, сложившаяся в Туркестане после Февральской революции 1917 года, особенно организация и подъем национальных сил в условиях неопределенности политической ситуации, попытки заполнить политический вакуум в стране, а также важность созываемых национальными силами съездов. Вместе с тем, в данном исследовании с точки зрения историчности проанализированы споры, принятые в 1917 году съездами, созданными национальными силами в Туркестане, по идейно-политическим, национальным и религиозным целям по отношению к мусульманскому населению края.*

***Ключевые слова:** Туркестанский край, Февральская революция, Шура-и-Исламия, Все-Туркестанские мусульмане, Национальный центр, Ташкентский Совет, Автономность, Туркестанская Федерация.*

**THE ROLE OF THE KURULTAI IN THE STRUGGLE OF NATIONAL FORCES FOR
POWER IN TURKESTAN IN 1917 (on the example OF the First Turkestan Muslim
Kurultai)**

***Annotation.** This article examines the social, economic and political situation in Turkestan after the February Revolution of 1917, especially the organization and rise of national forces in an uncertain political situation, attempts to fill the political vacuum in the country, as well as the importance of congresses convened by national forces. At the same time, in this study, from the point of view of historicity, the disputes adopted in 1917 by congresses convened by national forces in Turkestan on ideological, political, national and religious goals in relation to the Muslim population of the region are analyzed.*

***Keywords:** Turkestan region, February Revolution, Shura-i-Islamia, All-Turkestan Muslims, National Center, Tashkent Council, Autonomy, Turkestan Federation.*

Kirish. 1917-yilning boshlari ga kelganda Turkistonning katta qismi Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lib, rasman bo'lsa-da, o'z mustaqilligini saqlab qolgan Buxoro va Xiva davlatlari amaldar rus davlatiga qaram edi. Bir tomondan uch yildan beri davom etayotgan jahon urushi, imperiya qo'shinlari ning urush jabhalaridagi muvaffaqiyatsizliklari, 1916 yil yozi va kuzida butun Turkiston mintaqasini qamrab olgan mardikorchiikka qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonlar[1-480;2-448], urush oqibatida kelib chiqqan naqliyot (logistika) va oziq-ovqat muammolari, ikkinchi tomondan Turkiston xalqining milliy oydinlar siyomosida erk, ozodlik va mustaqillik yo'lida amalga oshiriyotgan intilishlari 1917 yil boshlariga kelganda nafaqat Rossiya imperiyasining markaziy guberniyalari, Turkistonda ham ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatning o'ta taranglashuviga olib kelgan edi.

Tahlil va natija. 1917 yil 27-28 fevral kunlari Rossiyada sodir bo'lgan Fevral inqilobi yangi tarixiy voqealarni yuzaga chiqarib, mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatga va imperiyaning mustamlaka mintaqalaridagi milliy harakatlar holatiga katta ta'sir ko'rsatib, ularning yanada kuchayishiga qo'shimcha turtki berdi[3-23;4-13,15;5-177,178]. Xolislik nuqtayi nazaridan Fevral inqilobi g'oyalari va uning natijasida yuz bergan o'zgarishlarni Turkiston aholisining ilg'or qismi ko'tarinlik bilan kutib olganligini, chunki bu bosqichga kelib Turkistonlik oydinlarda ularning asriy orzusi – milliy mustaqillik bilan bog'liq dolzarb muammolarni adolatli va huquqiy yo'l bilan hal qilishga umid paydo qilganligini qayd etish lozim.

Turkiston tuproqlarining yarim asrdan beri mustamlakachilik zulmi ostida toptalib kelayotgani, xalqining esa adolatsiz tuzum iskanjasida qolayotgani sabab turkistonlik taraqqiyparvar (jadid)larning Fevral inqilobi ilgari surgan "Yo'qolsin urush", "Yo'qolsin podsho hokimiyati", "Yashasin Demokratik respublika", "Yer - dehqonlarga", "8 soatlik ish kuni", "Xotin-qizlarga teng huquqlilik" shiorlariga xayrixohlik hissi bilan baho berishlari, o'sha paytda endigina 19 yoshni qarshi olgan Abdulhamid Sulaymon o'g'lining esa bu inqilobni o'z vaqtida "Ozodlik", "Tenglik" va "Birodarlik" shiorlarini ilgari surgan Fransuz burjua inqilobiga o'xshatishi[6-11] tabiiy edi.

Jadidlar Fevral demokratik inqilobiga, shu inqilob e'lon qilgan tamoyillarga katta umidlar bog'lab, uning g'oyalari va shiorlarini amalga oshirishga faollik bilan kirishdilar. Shu davrda ular xalq ongi-shuurida jiplashish, milliy birlikni mustahkamlash bobida muhim qadamlar qo'yishga muvaffaq bo'ldilar[5-186]. Xususan, taraqqiyparlarning umidlari va intilishlarining natijasi o'laroq 1917 yilning bahorida Turkiston xalqlarini birlashtirish yo'lida muhim qadamlardan biri – o'lka tarixida birinchi marta umummintaqaviy ko'lamda musulmonlar qurultoyi chaqirildi va unda xalqlar muxtoriyat sari, o'z urf-odatlarini, turmush tarzini himoya qilishga intilayotganligi aytilidi[7-33].

Sovet yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlarning aksariyatida, xususan O'zbekiston tarixi bo'yicha yaratilgan fundamental asarlarda Fevral inqilobi va Rossiyada monarxiya tuzumi ag'darilgandan keyin Turkistonning keyingi taqdiri bilan bog'liq hayotiy masalalarni muhokama qilish uchun chaqirilgan qurultoylar burjua- millatchi, feodal-amaldor, panturkchi va panislomchi unsurlar hamda guruhlarining yig'ini o'laroq tavsiflanib kelingan[8-504;9-662;10-54,55.]. Faqat mustaqil o'zbek davlatchiligining qayta tiklanishi bilan tariximizning adolatsiz qoralangan, turli g'oyaviy va sinfiy "yorliq"lar yopishtirilgan sahifalarini xolis tadqiq qilish imkoniyati paydo bo'ldi. To'g'ri, mustaqillik yillarida tarixiy jarayonlar, xususan, yaqin o'tmish tarixi bo'lgan sovet davriga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish uchun katta imkoniyatlar ochilgan, tarixni xolis va haqqoniy yozish zaruriyati tug'ilgan bo'lsa-da, rasmiy siyosat ta'rida ko'pchilik o'zbek tarixchilari yaratilgan imkoniyatdan foydalanishga cho'chidi, keksa va o'rta avlod tarixchilarning aksariyati esa kommunistik mafkura hamda sovetparastlik va o'risparastlik qarashlaridan qutila olmadi. Avtoritar rejim va diktatura kuchaygan sharoitda O'zbekiston tarixini xolis va haqqoniy yoritish uchun ularda na jur'at va na jasorat bor edi[5-25].

Shunga qaramasdan, bu davrda ayrim tarixchilar va manbashunoslar tomonidan 1917 yil fevral inqilobidan keyin Turkistonda yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat, mamlakatda yuzaga kelgan qo'sh, hatto uch hokimiyatchilik jarayonlarini ochib berishga

54 qaratilgan, keyingi yillarda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar uchun manbaviy asos vazifasini o'tab kelayotgan tadqiqotlar amalga oshirildi[11-89;12-95;13-72;14-168;15-128;16-156.].

1917 yil 16-23 aprel kunlari[17-28;18-78.] Toshkent shahrida "Sho'royi Islomiya" jamiyatining tashabbusi bilan Turkiston musulmonlarining I o'lka qurultoyi (s'ezdi) chaqirildi[3-31;5-180.]. Ma'vzuga doir manba va adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ularda qurultoyda ishtirok etish uchun mamlakatning turli shahar va qasabalaridan yuborilgan vakillar (delegatlar) soni bo'yicha keltirilgan ma'lumotlarning bir-biridan farqlanishiga guvoh bo'lish mumkin. Masalan, amerikalik tadqiqotchi E.Olvortzning "Markaziy Osiyoda rus boshqaruvi asri" nomli asarida hamda 2000 yillar da O'zbekistonning sovet davri tarixi bo'yicha mualliflar guruhi tomonidan tayyorlangan fundamental adabiyotlar va boshqa ishlarda qurultoyda tub aholi vakillaridan iborat 150 ta vakil (delegat) ishtirok etganligi ta'kidlangan bo'lsa[19-216;7-31;14-117;6-14], A.Mingnorov 1917-1918 yillarda Turkistondagi siyosiy tashkilotlarning rasmiy organlari bo'lgan davriy matbuot materiallarga tayanib, qurultoyda ishtirok etish uchun Turkistonning barcha viloyat va shaharlari, shuningdek, Rossiya musulmonlari vakillaridan taxminan 200 kishi kelganligi to'g'risida ma'lumot beradi [16-14]. Yana bir tadqiqotda qurultoyda ishtirok etgan vakillarning soni 440 ta bo'lganligi aytiladi [18-78]. Fikrimizcha, qurultoyda ishtirok etgan vakillarning umumiy soni 200 ta atrofida bo'lib, shundan Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlaridan kelgan vakillar soni 150 tani tashkil etgan. Chunki Rossiya imperiyasi boshqaruvi yillarida bu viloyatlar "tub viloyatlar" sifatida tasniflangan. Bular rasman vakil sifatida yuborilganlar soni bo'lib, qurultoyning ochilish kunida (1917 yil 16 aprel) unda ishtirok etganlarning soni adabiyotlarda keltirilgan raqamlardan oshgan bo'lishi mumkin.

Qurultoyning birinchi kunida vakillar (dyelegatlar) tomonidan Turkiston musulmonlarining birinchi qurultoyi hay'atiga Munavvarqori Abdurao'id o'g'li, Mustaf Cho'qay o'g'li, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jao'g'li, Sherali Lapin, Toshpo'latbek Norbo'tabek o'g'li, Sobirjon Yusuf o'g'li, Ahmad Zaki Validiy, Sodiq Sattor o'g'li, Islom Shoahmad o'g'li, Serikboy Akayev, Ahmadbek Qo'yboqarov, Abdurahmon O'raz o'g'li, Mulla Abdulhamid Mahmud o'g'li saylandi [20-117;21-15.]. Qurultoy ishida shuningdek, Muvaqqat hukumatning Turkiston qo'mitasi a'zolari A.Davletshin, S.Maqsudiy va M.Tinishboyevlar ham ishtirok etgan[20-117].

Qurultoy kun tartibida 20 ga yaqin masala bo'lib, ular orasida Muvaqqat hukumat va uning joylardagi organlariga munosabat; Rossiya bo'lajak siyosiy boshqaruv shaklining qanday bo'lishi; Ta'sis Majlisiga tayyorgarlik ko'rish; front ortidagi ishlarga odamlarni safarbar qilish; Turkistondagi fuqarolik, diniy-shariat muassasalari to'g'risida; maktablar, madrasalar va vaqflar, moliya viy ishlar, avvalgi zamondan qolgan muassasalarni yangilash; Turkistondagi barcha musulmonlarga rahbarlik qiluvchi islom diniy boshqaruvini tuzish; oziq-ovqat masalasi; yer va suv to'g'risidagi masalalar; Butunrossiya musulmonlari qurultoyi uchun delegatlar saylash; "Sho'royi Islomiya"ni o'lka miqyosida birlashtirish; uning yangi jamoat tashkilotlari, ijroiya qo'mitalariga munosabati kabi masalalarga[7-31;6-15;18-78.] alohida e'tibor qaratildi.

Qurultoyda mamlakatda erkinliklarni tadbiiq etish borasida ham fikrlar bildirilib, e'ndilikda jinsi, diniy e'tiqodi va e'tiqodidan qat'iy nazar barcha fuqarolarning qonun oldiga teng bo'lishlari; fuqarolarning vijdon, so'z, yig'ilishlar, harakatlanish, uyushma va jamiyatlar tashkil etish hamda uy-joy va shaxs daxlsizligi kabi erkinliklarni ta'minlashi kerakligi ta'kidlangan[3-32].

Qurultoy o'lkani mustamlaka qilishni to'xtatish va mahalliy aholiga musodara qilingan yerlarni qaytarish talabi bilan maxsus qaror qabul qildi[3-32]. Xususan, qurultoy hay'atining Muvaqqat hukumatga munosabati masalasi bo'yicha qabul qilingan rezolyutsiyasida "Umid qilamizki, Muvaqqat hukumat avvalda hokimiyat chiqish oldidan qabul qilingan deklaratsiyalarini sidqidildan va og'ishmasdan hayotga tadbiiq etadi. Zero, butun hokimiyatni o'z tasarrufiga olgan va cheksiz nufuzga ega bo'lgan Muvaqqat hukumatgina bunday sharoitda yolg'iz o'zi inqilob e'lon qilgan demokratik tamoyillarni tadbiiq etishda ijodiy yaratuvchanlik yo'lidan borishi uchun imkon yaratish va fuqarolar urushiga yo'l qo'ymaslik vakolatiga ega bo'la oladi. O'lka musulmonlari qurultoyi shu maqsadlarga erishish uchun Muvaqqat hukumatni har tomonlama qo'llab-quvvatlashni zarur deb biladi, qolaversa, Muvaqqat hukumat o'z faoliyati davomida

mamlakatda shakllangan jamoatchilik fikriga ham suyanishi lozim"[22-39], deb ta'kidlangan edi. Shu bilan birga qurultoy davomida qabul qilingan "Sho'royi Islomiya" dasturida o'lka musulmonlari orasida islohotlar o'tkazish g'oyalarini tarqatish, mintaqadagi barcha musulmonlarni yagona fikr va maslak asosida birlashtirib, Turkistonga **muxtoriyat** maqomini berish uchun kurash vazifasi qo'yilgan edi[4-23].

Turkiston musulmonlari birinchi qurultoyining asosiy nati jasi sifatida davriy matbuotda va ilmiy adabiyotlarda "Milliy markaz" nomi bilan yuritilgan Turkiston o'lka musulmonlar Sho'rosi (Kraymussovet) ning tuzilganligini ko'rsatish mumkin[7-33;6-16;18-78;3-33]. Uning tarkibiga o'sha davrning siyosiy arboblari Mahmudxo'ja Behbudiy, Ubaydulla Xo'jayev, Mustafo Cho'qay, Ahmad Zaki Validiy, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Nosirxon To'ra, Islom Shoahmedov, Muhammadjon Tinishboyev va boshqalar kirdilar[4]. "Milliy markaz"ning markaziy tashkilotiga o'lkaning barcha viloyatlaridan vakillar kiriti lib, doimiy ishlovchi Toshkent ijroiya qo'mitasi ta'sis etilgan. Qurultoy ishtirokchilarining ko'pchilik ovozi bilan Mustafo Cho'qay o'g'li Milliy Markaz raisi[3-33], Ahmad Zaki Validiy va Ubaydulla Asadullax o'ja o'g'li kotib etib saylandi[3-34].

Bu Turkistondagi taraqqiyparvar kuchlarning yirik muvaffaqiyati edi, albatta. Lekin voqealar rivoji ulardan ish shakllari va usullarini takomillashtirishda katta ephillik va qat'iyatlikni, dasturiy va taktik yo'l-yo'riq va ko'rsatmalarni o'zgartirishni talab qilar edi[7-33]. Shunga qaramasdan, 1917 yilning bahorida Turkiston xalqlarini birlashtirish yo'lidagi tarixiy qadamlardan biri tashlangan, o'lka tarixida birinchi marta musulmonlar qurultoyi chaqirilgan edi. Bu qurultoyda musulmonlarning asriy orzu-istaklari va tub manfaatlarini ifodachisi bo'lgan tashkilot – Turkiston musulmonlari Markaziy Kengashi ta'sis etildi. Qurultoy davomida turli milliy jamiyatlar va tashkilotlardan kelgan vakillar o'lkaning keyingi taqdiri hamda taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan masalalar ni ko'rib chiqdilar, qator mavzularda yakdil qarorlar qabul qilishga muvaffaq bo'ldilar.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati

1. Ziyoyev H.Z. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. - Toshkent. "Sharq", 1998. - 480 b.
2. Ziyoyev H.Z. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. - Toshkent: "Sharq", 2001. - 448 b.
3. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Ikkita kitob. Birinchi kitob. 1917-1939 y. Mas'ul muharrirlar: R.Abdullayev, M.Raximov, Q.Rajabov. –Toshkent: "O'zbekiston", 2019. 23- 31-32 betlar.
4. Rajabov Q. Turkiston Muxtoriyati tarixi. Mas'ul muharrir Azamat Ziyoyev. Toshkent. Fan. 2023. 13-15- 23 betlar.
5. Rajabov Q. O'zbekiston XX asrda. Ikki jildlik. Birinchi jild (1900-1939). Mas'ul muharrir akademik Azamat Ziyoyev. Toshkent. Fan. 2024. 25-177-178-180-186 betlar.
6. Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. Uchinchi kitob (O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). Toshkent. Sharq. 2010. 11- 14-15-16 betlar.
7. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Mas'ul muharrir: M. Jo'rayev. –Toshkent: "O'zbekiston", 2000. 28-31-33-betlar
8. Istoriya Uzbekskey SSR. / Pod red. M.G. Vaxabova, V.Ya. Nepomnina, T.N. Kari-Niyazova. T. 1. – Kn.2. – Tashkent: Fan, 1956. – 504 s.
9. Istoriya Uzbekskey SSR. / Gl. red. R.X. Aminova. T.2. – Tashkent: Fan, 1968. – 662 s.
10. O'zbekiston SSR tarixi. 4 tomlik. 3-tom. Ulug' Oktyabr sotsialistik revolyutsiyasining g'alabasi va O'zbekistonda sotsializm qurish (1917-1937 yillar). Bosh muharrir I.M.Mo'minov. Toshkent. Fan. 1971. 54-55 b.
11. Turkiston mustaqilligi va birligi uchun kurash sahifalaridan. Toshkent. Fan. 1996. 89 b.
12. O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. Toshkent. Eldinur. 1998. 95 b.

13. Alimova D., Golovanov A. O'zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari (1917-1990 yillar). –Toshkent: "O'zbekiston", 2000. – 72 bet.
14. A'zamxo'jayev S. Turkiston Muxtoriyati: milliy-demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. Toshkent. Ma'naviyat. 2000. 168 b.
15. Shodmonova S.B. Nemis va turk tarixshunosligida sovet mustamlakachiligiga qarshi kurash masalalari (1917-1924 yillar). Toshkent. Abu matbuot-konsalt. 2008. 128 b.
16. Mingnarov A. Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning milliy matbuotda yoritilishi (1917-1918 y.). – Toshkent: "Istiqlol nuri", 2013. 14-156 b. va boshq.
17. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Mas'ul muharrir: M. Jo'rayev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2000. 28- 31-33 betlar.
18. Shadmanova S. Türkistan'da Ulusal Güçlerin Birleşmesinde Kurultayların Önemi // Ekim 1917 Sovyet İhtilali'nin yüzüncü yılında: Türk Dünyasındaki Bağımsızlık Fikri ve Siyasi Hareketler. Uluslararası Sempozyum Bildirileri. İstanbul. 2017. S.78
19. Allworth E. Central Asia. A Century of Russian Rule. University Presses of California. Columbia and Princeton. 1967. P.216
20. Agzamxodjayev S. Istoriya Turkestanskoy avtonomii (Turkiston Muxtoriyati). Tashkent. Izd-vo Tashkentskogo islamskogo universiteta. 2006. S.117
21. Vatan tarixi. Uchinchi kitob (O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). Toshkent. Sharq. 2010. 15-bet
22. Silonov A. Fevral'skaya revolyutsiya v Turkestane // Kommunisticheskaya misl. Kn.3. Tashkent. SAKU. 1927. S.39